



D-PRESS SERVICES
nashriyoti

www.d-pressa.com

Respublika konferensiya



Barqaror rivojlanishda ilm-fan va
innovatsion yondashuvlarning roli

2026

A P R E L



Google Scholar

“Barqaror rivojlanishda ilm-fan va innovatsion yondashuvlarning roli” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - J.: “D-PRESS SERVICES nashriyoti”, 2026.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiya “Barqaror rivojlanishda ilm-fan va innovatsion yondashuvlarning roli” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta‘minlashda ilm-fan, innovatsiya va ilg‘or texnologiyalarning ahamiyati keng yoritiladi. Konferensiya doirasida iqtisodiyot, ta‘lim, ekologiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy soha va boshqa yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, ilg‘or tajribalar hamda innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislarini to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Tadbirning asosiy maqsadi – ilmiy ishlanmalar va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘rtni ta‘minlash hamda jamiyatning ijtimoiy va ekologik muammolariga samarali yechimlar ishlab chiqishga ko‘maklashishdan iborat. Shuningdek, konferensiya ilmiy hamkorlikni kengaytirish, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Konferensiya natijalari sifatida ilg‘or ilmiy g‘oyalar, taklif va tavsiyalar shakllantiriladi hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Mazkur anjuman ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash orqali barqaror rivojlanishning muhim omillarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TIJORAT BANKLARIGA JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mamasobirov Nasibillo Soyibjon o'g'li

Diplomat University WE_01_24 D guruh talabasi

nasibillomamasobirov272@gmail.com

Annotatsiya: Bank tizimida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, hisobot ko'rsatkichlarini xalqaro talablar asosida takshil qilish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlarini ochib berish masalalari batafsil yoritilgan, hisobot tuzish jarayonida MHXS asosida hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish amaliyoti keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, moliyaviy hisobotlar, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobotlarni tuzish, hisobot standartlari, banklardagi hisobot tizimini xalqaro talablar bo'yicha yuritish.

Аннотация: В контексте экономической либерализации банковской системы подробно рассматриваются проблемы и решения в процессе формирования финансовой отчетности на основе международных стандартов, анализа показателей отчетности на основе международных требований, а также практика формирования показателей отчетности на основе МСФО в процессе отчетности.

Ключевые слова: Коммерческие банки, финансовая отчетность, международные стандарты, подготовка финансовой отчетности, стандарты отчетности, поддержание системы отчетности в банках в соответствии с международными требованиями.

Annotation: In the context of economic liberalization in the banking system, the problems and solutions in the process of forming financial statements based on international standards, analyzing reporting indicators based on international requirements, and the practice of forming reporting indicators based on IFRS in the reporting process are discussed in detail.

Key words: Commercial banks, financial statements, international standards, preparation of financial statements, reporting standards, maintaining the reporting system in banks in accordance with international requirements.

Dunyoda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan barcha bank va moliya institutlari, 45 mingdan ortiq transmilliy korporatsiyalar va yirik kompaniyalar o'zlarining 250 mingdan ortiq sho'ba va boshqa bog'liq kompaniyalari bilan birgalikda MHXSlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni ixtiyoriylik asosda tuzmoqdalar¹⁵. Demak dunyoda MHXSlarini e'tirof etuvchi mamlakatlar soni

¹⁵ <https://www.ifrs.org/>

oshib bormoqda. Chunki buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilgʻor tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masaladir. Lekin shuni taʼkidlash lozimki, bank tizimida xalqaro standartlarni joriy etishda umumbelgilangan tartibdan chetga chiqqan holda bank xususiyatlarini, ayniqsa banklarda moliyaviy instrumentlar masalasiga katta eʼtibor qaratish kerak.

Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini taʼminlash, hisob tizimini xalqaro standartlar talablari asosida yuritilishi hisobot axborotlarining ishonchliligini oshirishda muhim sanaladi. Ushbu masalada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti taʼkidlaganidek, “aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sugʻurta tashkilotlari va yirik soliq toʻlovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga oʻtishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno.”¹⁶ Ushbu Farmonga koʻra, aksiyadorlik jamiyatlari 2021 yil 1 yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy xoʻjalik faoliyatiga oid moliyaviy hisobotlarni tayyorlash MHXSlari asosida amalga oshiradi.

Dunyo tajribasini oʻrganish natijasi shuni aniqlash mumkinki, birorta davlat tajribasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻzlari hohlagan shaklda hamda umuman dastlabki tayyorgarlik koʻrmasdan, ushbu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bevosita oʻtishi va hisob tizimi amaliyotiga qoʻllab boʻlmaydi. Chunki tijorat bankining moliyaviy hisobotini xususiyatlarini inobatga olgan holda transformatsiya jadvallari ular faoliyatiga moslab ishlab chiqish zaruriyati vujudga keladi va ushbu jarayonni inobatga olgan holda ham bank faoliyati boʻyicha moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartiga oʻtish ketma-ketligini ishlab chiqish lozim va bank faoliyat boʻyicha xalqaro standartga mos moliyaviy hisobotlarni shakllantirish kerak. Chunki xalqaro tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, bank tizimida MHXSni qoʻllash amaliyotini 2 xil usuldan biri boʻyicha tashkil qilinishi kerak. Birinchi usulda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qoʻllanishi yoki ikkinchi usulda milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin ushbu bankda maʼlum shart-sharoitlarni yaratishimiz, shu jumladan buxgalteriya xodimlari malakasini oshirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozim.

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2020 йил 24 февраль, ПҚ-4611-сон Қарори.

Shunday qilib yuqoridagi masalalarning yechimini topish va MHXSga o'tishning natijasida va jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

Buxgalteriya hisobining xalqaro tizimini tahlil qilish jarayonida eng avvalo, turli davlatlarda tashkil etilgan hisob tizimiga nazar solish talab qilinadi. Moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, kompaniya va firmalar moliyaviy ko'rsatkichlariga baho berish ularning xalqaro miqyosda harakat qilishiga shart-sharoit yaratadi. Xulosa shundaki, tijorat banklari moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari tizimi imkon qadar MHXSlariga uyg'un bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Agar o'rtada tafovut katta bo'lsa, transformatsiya jarayoni qiyinlashadi va boshlangan ish kutilgan natijani bermaydi;

- buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotni tuzish va taqdim etishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bosh huquqiy-me'yoriy hujjat bo'lishi kerak. Nizom, yo'riqnoma va qoidalar bosqichma-bosqich standartlarga kiritiladi;

- O'zbekiston Respublikasida professional buxgalterlar institutini tashkil etish, uning vakolati doirasida sertifikatli mutaxassis va auditorlar malakasini oshirish, amaliyotchi buxgalterlarning xalqaro dasturlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish lozim;

- O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari bosh buxgalterlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlayotganligi uchun moddiy rag'batlantirish;

Buxgalteriya hisobining xalqaro tizimini tahlil qilish jarayonida eng avvalo, turli davlatlarda tashkil etilgan hisob tizimiga nazar solish talab qilinadi. Moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, kompaniya va firmalar moliyaviy ko'rsatkichlariga baho berish ularning xalqaro miqyosda harakat qilishiga shart-sharoit yaratadi. Xulosa shundaki, tijorat banklari moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari tizimi imkon qadar MHXSlariga uyg'un bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Agar o'rtada tafovut katta bo'lsa, transformatsiya jarayoni qiyinlashadi va boshlangan ish kutilgan natijani bermaydi;

- buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotni tuzish va taqdim etishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bosh huquqiy-me'yoriy hujjat bo'lishi kerak. Nizom, yo'riqnoma va qoidalar bosqichma-bosqich standartlarga kiritiladi;

- O'zbekiston Respublikasida professional buxgalterlar institutini tashkil etish, uning vakolati doirasida sertifikatli mutaxassis va auditorlar malakasini

oshirish, amaliyotchi buxgalterlarning xalqaro dasturlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish lozim;

– O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari bosh buxgalterlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlayotganligi uchun moddiy rag'batlantirish.

Shunday qilib yuqoridagi keltirilgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishga doir fikrlarni umumlashtirib quyidagi asosiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1) MHXS asosida ishlayotgan tijorat banklari hisob siyosatini takomillashtirish, uning moliyaviy hisobot tamoyillariga to'liq rioya qilingan holda tuzilishi, chinakam hisob loyihasining xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilishiga erishish kerak.

2) Kelgusida bank tizmini MHXSga moslashtirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

3) Har bir tijorat banki asl va so'nggi nusxadagi MHXS to'plamini yoki Markaziy bank va boshqa tashkilot tomonidan markazlashgan holda standartlar to'plamini sotib olishi va tijorat banklari MHXSga kiritilayotgan o'zgarishlar bilan ta'minlanib turishi lozim. Shuningdek, MHXSning aslini ingliz tilida o'qish va ishlatish malakasini oshirish uchun bank xodimlari muntazam ravishda o'qitib borilishi kerak.

4) Tijorat banklari yillik hisobotlarini o'zlari mustaqil ravishda MHXSga asoslangan holda tuzishlari lozim, tashqi auditor xizmatidan foydalanilgan taqdirda ushbu hisobotni boshqa auditorlik tashkiloti tomonidan qayta tekshirilishini ta'minlashi, banklar tomonidan tayyorlanayotgan yillik hisobot imkon qadar keng tahliliy ma'lumotlarni qamrab olishi va bank mijoz va konragentlarining tijorat sirlarini oshkor qilmasligi lozim. Bu borada iqtisodiyoti rivojlangan banklarning hisobotlaridan o'rganish va andoza sifatida foydalanish zarur.

5) Tijorat banklarida hisobotlarni MHXSlari asosida shakllantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilishi lozim. Zero, ayrim hollarda investor yoki boshqa manfaatdor shaxs uchun nafaqat yakuniy, balki yil o'rtasidagi joriy ma'lumotlar kerak bo'ladi. Tijorat banklarida MHXSni muvofiqlashtirish boshqarmalarini tashkil qilish (bankning katta kichikligidan kelib chiqqan holda departament, bo'lim yoki sektor) lozim.

6) Hisobotning shaffofligini yanada oshirish maqsadida MHXSning qaysi standartlari aynan qabul qilinganligi va qaysilari o'zgartirishlar bilan qabul qilinganligi (o'zgartirishlar mazmuni oshkor qilingan holda) Markaziy bank yoki boshqa yuqori tashkilot tomonidan e'lon qilinishi lozim. Qabul qilinmagan standartning qabul qilinishi va joriy qilinishi bo'yicha muddat belgilanishi kerak. Shuningdek, O'zbekistonda MHXSlari bo'yicha yetuk mutaxassis hisoblanayotgan tashqi auditorlik tashkiloti hodimlari bilan o'quv-amaliy seminarlarni tashkil etish lozim. Ushbu o'quv amaliy-seminarlarni markazlashgan tartibda Markaziy bank, Moliya vazirligi yoki Banklar assotsiatsiyasi tomonidan tashkil qilish yoki tijorat banki va auditorlik

tashkiloti tomonidan shartnoma asosida, qo‘shimcha xizmat sifatida tashkil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ageyeva O.A. Mejdunarodnyye standarti finansovoy otchetnosti. Uchebnik dlya vuzov. /O.A.Ageyeva, A.L.Rebizova. – M.: Yurayt, 2013. – 447.
2. Barxatov A.P. Mejdunarodnyye standarti finansovoy otchetnosti. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2012. – 484 s.
3. Ibragimov A.K. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. A.K.Ibragimov, M.D.Marpatov, N.K.Rizaev. T.: Moliya, 2016. 370 b.
4. Trofimova L.B. Mejdunarodnyye standarty finansovoy otchetnosti. Uchebnik, Izdatelstva “Yurayt” 2018., -242s. S.29-10.
5. Mislavskaya N.A. Mejdunarodnyye standarti ucheta i finansovoy otchetnosti. Uchebnik. / N.A. Mislavskaya S.N. – M.: Dashkov i K, 2012. – 372 c
6. Ibragimov A., Ochilov I, Qo‘ziyev I., Rizayev N., Moliyaviy va boshqaruv hisobi.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. B. 263.
7. Chaya V.T., Chaya G.V. Mejdunarodnyye standarty finansovoy otchetnosti. ISBN 978-5-4252-0182-9. – 368 s.
8. Axrorov E., Saitov S. O‘ZBEKISTONDA ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISH VA YANGI ISH O ‘RINLARINI YARATISH //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 136-140.
9. Nasrullayeva S., Saitov S. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA SUN’IY INTELLEKTNING JAMIYAT RIVOJI, INSON FAOLIYATI VA IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARDAGI O ‘RNI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 105-108.
10. Saitov S. Barqaror Iqtisodiyotni Ta'minlashda Soliq Siyosatining Samaradorligi //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 12. – C. 668436.
11. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.
12. Kamolov D., Ismoilova D. THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
13. Kamolov D. JIZZAX VILOYATIDA TURIZM KLASTERI RIVOJLANISHINING HUDUDNING IJTIMOY-IQTISODIY SALOHIYATIGA TA’SIRINI BAHOLASH: STRATEGIK YONDASHUV VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 48-52.
14. Kamolov D. VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 372-374.